INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

RESPUBLIKADA TURIZM SOHASINING KO‘RSATKICHLARI VA MADANIY-TARIXIY OBIDALARNING AHAMIYATI

Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi
Bux.DU.Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi
tayanch doktoranti
ozodaxon.jumaniyazova2000@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizning turizm sohasi, turistik obyektlarning ahamiyati, madaniy-tarixiy turizmning ahamiyati qay darajada ekanligi va oxirgi yillardagi turistlar oqimi haqidagi ma’lumotlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *turizm, turistik obyektlar, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, turistik hududlar.*

Аннотация: В статье исследуется туристская отрасль нашей страны, значение туристских объектов, степень значимости культурно-исторического туризма и данные о туристском потоке за последние годы.

Ключевые слова: *туризм, туристские объекты, культурное наследие, памятники истории, туристские территории.*

Abstract: The article explores the tourism sector of our country, the importance of tourist facilities, the extent to which cultural-historical tourism is important, and information about the influx of tourists in recent years.

Key words: tourism, tourist facilities, cultural heritage, historical monuments, tourist areas.

Kirish.

O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishiga hissa qo‘shadigan omillardan biri bu turizmdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son farmoni turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish, turizm tarmog‘ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko‘paytirish maqsadlariga qaratilganligi mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish ishlari jadal ketayotganligining isbotidir.[1]


So‘nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotimizning o‘sish omillaridan biri sifatida boshqa turli tarmoqlarni ham rivojlantirish drayveriga aylandi. Ayniqsa yangi ish o‘rinlari yaratishda ushbu soha beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda turizm industriyasi va xizmatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor berilmoqda. 2024-yilning 10 oyi davomida 18 me’yoriy hujjat – Prezidentning 3 farmoni va 6 qarori, hukumatning 9 qarori tasdiqlangani ham fikrimizni isbotlaydi.[2]

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bilamizki, mamlakatimizda 7000 dan ortiq madaniy meros obyektlari joylashgan bo‘lib, ularning aksariyati YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivaning tarixiy markazlari – bu va yana ko‘p narsalar O‘zbekistonning jahon turizm bozori maydonidagi ulkan salohiyatidan dalolatdir.[3]

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son farmoni https://lex.uz/docs/-4474527
[2] https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628
[3] https://uzbekistan.travel/uz/v/madaniy-turizm/

Bugungi kunda yurtimiz O‘zbekistonda 2 mingdan ziyod tarixiy yodgorliklar mavjudligi madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish salohiyati yurtimizda ham yuqori ekanligidan dalolat beradi **(1-rasm)**.



Manba:1-rasm. Respublikadagi tarixiy yodgorliklar soni (hudular kesimida)[4]

Keyingi yillarda O‘zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni oqilona tashkil etish va boshqarishni hamda shu sohadagi dolzarb muammolarni ko‘rib chiqish, xalqaro tajribani o‘rganish, madaniy-tarixiy meros saqlanishini ta’minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu boradagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda.

Tahlil va natijalar

2024-yil davomida respublikamizga jami 8,6 million nafar xorijiy sayyoh kelgan. Ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko‘rsatildi. Ushbu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan 1,5 barobar ko‘p. Yevropa va boshqa mintaqalar hamda qo‘shni davlatlardan keluvchilarning o‘rtacha xarajati 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar oshgan. Sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi 762 yangi sub’ekt faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida turistik tashkilotlar va turagentlar soni 3581 taga yetdi. Bugungi kunda respublikamiz bo‘ylab 3200 gid-ekskursovod ishlayapti. Joriy yilning o‘zida ayni raqam 700 taga ortdi. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e’lon qilingan “Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra, mamlakatimiz 2024 yil “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb topildi. Bu e’tirof mamlakatda xalqaro sayyohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e’tibor kuchayib borayotganini bildiradi.

[4] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// https://www.norma.uz //Muallif ishlanmasi.

Mamlakatimizda turizm sektori tez rivojlanmoqda, xizmat sifati yaxshilanmoqda[5] **(2-rasm)**[6]:

Vizasiz rejim kuchaytirilgan	90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz kirish imkoni mavjud. Turistlarga jarayonni osonlashtirish uchun elektron viza tizimi joriy qilingan.
Ichki transport infratuzilmasi	Havo, temir yo‘l va avtobus qatnovi yaxshilangan. Taksi va karshering xizmati mavjud. Sayyohlar juda oson va qulay harakatlanadi.
turizm markazlari ochilgan	Ushbu majmualarda zamonaviy xizmatlar, shuningdek sport zali, restoran va suv havzasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.
tarixiy va madaniy yo‘nalishlar	O‘zbekiston tarixiy va madaniy yo‘nalishlar, jumladan o‘ziga xos me’moriy yodgorliklarga boy, go‘zal tabiatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlardagi obidalar juda jozibador.
tovarlar xarid qilish imkoniyati	Hududlarda ko‘plab do‘konlar ochilgan. Mahalliy qoliplar, an’anaviy hunarmandlik mahsulotlari keng tarqalgan.
Ekskursiya xizmati rivojlangan	Professional gidlar yetarli, turlar tashkil etilgan. Bu jarayonda sayyohlar tarixiy va madaniy yodgorliklarni, tabiatni tadqiq qilishi mumkin.
raqamli xizmatlar	Masalan, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali har qanday ma’lumotni olish, tur va xizmatlarga buyurtma berish imkoni bor.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz jahon sivilizatsiya o‘choqlaridan biri sifatida, o‘zining asori-atiqalari bilan mashhurdir. Bizning madaniyatimiz dunyo xalqlari san’at, arxitektura, shaharsozlik va ko‘pgina sohalariga ulkan hissasini qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// https://www.norma.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son farmoni https://lex.uz/docs/-4474527

[5] https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628
[6] Muallif ishlanmasi

3. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628
4. https://uzbekistan.travel/uz/v/madaniy-turizm/
5. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628